Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

VOQELIKKA AKSIOLOGIK MUNOSABATGA DOIR SHARQ FALSAFASI KONSEPSIYALARI

Ulug'bek Abduxalilovich Azimov*
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti, f.f.b.f.d.,(PhD)
✉ azimovulugbek413@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, qadriyatlar tizimining voqelikda namoyon bo'lishi, voqelikka qadriyatli munosabatda bo'lish va bu borada Sharq falsafasi konsepsiyalarining vujudga kelganligi, shuningdek bu sharqona konsepsiyalarning turli-tuman yo'nalishlarga ega ekanligi, yoshlar tarbiyasi va ularning voqelikka aksiologik yondashuvi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar

aksiologiya, Sharq falsafasi, konseosiyalar, ijtimoiy qadriyatlar, evdemologiya, adolat, gumanizm, xalq og'zaki ijodi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743878

KIRISH

Bugungi kunda qadriyatlar tizimi, askiologik ong va voqelikka aksiologik munosabatga doir Sharq falsafasi konseptsiyalari vujudga keldi. Mazkur konseptsiyalarda jahon tsivilizatsiyasi, ilm-fan va axloqiy-gumanistik ta'limotlar sharqdan tarqalgan, degan haqli g'oya ilgari surilgan. Unda qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar ijtimoiy qadriyatlar sifatida g'arb, ayniqsa, Evropa tomonidan o'zlashtirilganligi uqtiriladi. Konfutsiy, Budda, Zardusht – ma'naviy-axloqiy va transendental qadriyatlar asoschisi sifatida qaralgan va ularning merosidagi umuminsoniy jihatlarni o'rganish, o'zlashtirish, ijtimoiy hayotga tatbiq etish antik davrdan beri davom etib keladi.

Sharqona konsepsiyalar ham o'z ichida turli-tuman yo'nalishlarga ega. Konfutsiy siyosiy-axloqiy [1:C-61,62], Budda ma'naviy-axloqiy [2:C-182,186], Zardusht gumanistik [3], ya'ni ezgulikning tantanasiga ishongan g'oyalarni qadrlaganlar. Shu bilan birga, Forobiy falsafasida evdemologiya, Yusuf Xos Hojib asarida adolat, hamkorlik, Beruniy va Ibn Sino merosida inson aqlu idrokiga ishonish, Nizomulmulk merosida davlat va jamiyatni boshqarish adolat printsplariga muvofiq asosiy qadriyatlar sifatida qaralgan[4]. Konsepsiyalar va g'oyalarning bunday keng qamrovi haqiqatan ham sharqning tsivilizatsiya beshigi ekanligini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda nashr etilgan adabiyotlarda mazmun jihatidan har xil qadriyatlar, chunonchi: oilaviy, ma'naviy, diniy, milliy, axloqiy, huquqiy, siyosiy va boshqa qadriyatlar farqlanadi[5:C-23]. Bizning nazarimizda, ijtimoiy qadriyatlar tushunchasi mazmunan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – insoniy g'oyalar, tasavvurlar, mo'ljallar, kechinmalarni ham o'z doirasida qamrab oladi.

Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan to'g'ri qadriyatshunoslik deb ham atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar kabi qadriyat tushunchasi xam qadriyatshunoslik fani uchun asos rolini bajaradi.

Har qanday fanni ilmiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash shu fanga xos bo'lgan mavzular, funktsiyalar, tushunchalar, qonunlar, kategoriyalar borligi orqali e'tirof etish mumkinligini ko'rsatadi. Aksiologiyaga ijtimoiy-falsafiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash ham bundan mustasno emas.

Asosiy qism. Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, xalq ogʻzaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq ogʻzaki ijodida koʻproq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga eʼtibor berilgan boʻlib, ularning mazmuni va mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, Spitamen, Alpomish, Toʻmaris, Shiroq toʻgʻrisidagi doston va rivoyatlarda ularning vatanparvarligi, yurt tinchligi, el ozodligi uchun kurashi fidoyilik ruhida tasvirlangan. Ularni mohiyatan qadimgi yunonlarning “Illiada” va “Odisseya” dostonlari bilan qiyoslash mumkin.

Qadimgi odamlar borliq toʻgʻrisida oʻylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining maʼnosi, mazmuni, maqsadi haqida fikr yuritganlar, botirlik, oqillik, xokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, ularning baʼzilarini hatto ilohiylashtirganlar.

Qadriyatlar masalasi Moniy davri falsafiy-ilohiy taʼlimotida ham yaqqol ifodalangan. Moniyning fikricha, ikki dunyo-zulmat va ziyo dunyosi mavjud. Birinchisi, adolatsizlik, zulm; ikkinchisi, abadiy emirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosi. Moniy taʼlimotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan, ularning umumiy tizimi mifologiya, filosofiya, kosmogoniya, astronomiya va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bogʻliqlikda tushuntirilgan.

Qadriyatlarni oʻrganishning qadimiy ildizlari VI asrda yashagan Mazdak taʼlimotida ham katta oʻrin egallagan. Islom madaniyati yuksalishi va rasmiy dinga aylanishi oqibatida bu izlar xiralashib, ularni aniqlash qiyinlashib qolgan.

Kezi kelganda shuni alohida taʼkidlash kerakki, vatanimiz tsivilizatsiyasi arab dunyosi madaniyatining rivojiga ham jiddiy taʼsir koʻrsatgan. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlarning taʼlimotlarida nafaqat islom, balki tsivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining taʼsiri beqiyosdir.

Sharq madaniyati tarixida muhim oʻrin tutgan buyuk mutafakkir alloma Forobiy ham qadriyatlar masalasini ilmiy nuqtai nazardan oʻrganib chiqqan. Uning qadriyatlar toʻgʻrisidagi fikrlari “Madina al-Fozila” risolasida oʻz aksini topgan. Alloma oʻzining fozil jamiyat toʻgʻrisidagi taʼlimotida yuksak gʻoyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan maʼnaviy-ahloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega boʻlishini, ammo unda Kalom va fiqx vakillari kishilarning maʼnaviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini taʼkidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar gʻoyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan oʻsha davrda, nafaqat Olloh gʻoyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini asoslab bera olgan.

Qadriyatlar masalasiga Beruniy asarlarida ham katta eʼtibor qaratilgan. Uning fikricha, maʼnaviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bogʻlangan boʻladi. Shuningdek, kishilar oʻrtasidagi hamkorlik ularning birlashish ehtiyojlari, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan oʻzining himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy va ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirish tarafdori boʻlgan. Shu bilan birga, u arab bosqinchiligini, ularning yurtimizdagi madaniy yodgorliklarni yoʻqotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislik zarur ekanligini taʼkidlaydi.

Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bagʻishlangan boʻlib, ularning ayrimlari, masalan, “Adolat” nomli falsafiy entsiklopediya, “Sharq falsafasi”, “Yaxshi ish va gunoh” asarlari bizgacha etib kelmagan. Uning qadriyatlar masalasidagi qarashlari bizgacha yetib kelgan “Donishnoma”, “Solomon va Ibsol” kabi asarlarida oʻz ifodasini topgan. Uning nazarida, borliq va tabiat insonni oʻrab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan oʻziga davo topadi.

Oʻrta asrlarda siyosiy qadriyatlarning rivojlanishida sohibqiron Amir Temurning xizmatlari alohida oʻrin egallaydi. Uning podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning axloq-odob talablari, davlat va siyosat qadriyatlariga ahamiyat berilgan qator asarlari sharqda va gʻarbda mashhur boʻlgan, koʻp marta chop etilgan. Eng muhimi, bugungi hayotimizda ham ular oʻz dolzarbligini saqlab kelmoqda. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qoʻshin, ulamolar, arkoni davlat va boshqalarga munosabati uchun

asosiy mezon bo‘ladigan siyosiy qadriyatlar o‘sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Amir Temurning tariximizdagi o‘rni va mamlakatni obod qilishdagi xizmati e’tiborga sazovordir. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o‘git va nasihatlari keyingi davr siyosiy arboblari uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Qadriyatlar tahlilida Mirzo Ulug‘bekning fikrlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘z hukmronligi davrida saroyni ma’rifatli kishilar makoniga aylantirdi. Uning maslakdoshlari Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlar bilan birga yuritgan fikrlari qadriyatlar, koinot sirlari, unda ro‘y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o‘rganish borasida o‘z zamonasidan sezilarli darajada ilgarilab ketdi.

Ulug‘bek akademiyasining faoliyati o‘rta asrlar ilmiy hurfikrliligining eng yorqin namunalaridan biridir. U boshchilik qilgan olimlar diniy kuchlarning xurofotga to‘la fikrlari avj olgan bir davrda koinot va yulduzlarni inson uchun abadiy makon bo‘lgan olamning bashariy qadriyatlari sifatida tushunganlar va hayratlanarli tarzdagi aniqlik bilan tadqiq qilganlar.

Yurtimiz madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Nizomiddin mir Alisher Navoiy o‘zining asarlarida qadriyatlar masalasiga inson manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan. “Alisher Navoiy insonni butun koinotning markaziy siymosi, butun mavjudotning toji, deb biladi”[6:B-137]. Navoiy insonni “koinotning markazi” deb atash orqali uni borliq tizimidagi eng yuksak va ma’naviy jihatdan mukammal mavjudot sifatida ko‘radi. Bu qarash tasavvuf falsafasidagi “insoni komil” konsepsiyasiga borib taqaladi.

Tasavvufda inson: koinotning kichik namunasi (mikrokosm), butun borliq sifatlarini o‘zida jamlagan mavjudot, ilohiy sifatlarni anglash qobiliyatiga ega zot sifatida talqin qilinadi. Navoiy asarlarida (ayniqsa, Lison ut-Tayr va Mahbub ul-Qulub) insonning ma’naviy kamoloti oliy maqsad sifatida ko‘rsatiladi. Demak, “toj” timsoli — insonning tabiat va boshqa mavjudotlar ustidan zo‘ravonligi emas, balki ma’naviy mas’uliyatini anglatadi. Uning fikrlari tasavvuf ta’limoti bilan to‘liq yo‘g‘rilgan bo‘lib, ushbu ta’limot faqat hazrat Alisher Navoiy emas, balki Sa’diy, Abdurahmon Jomiy kabi ko‘plab o‘rta asr mutaffakirlari qarashlarida ham o‘z aksini topgan.

Alisher Navoiyning odil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta’limotida esa chin inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta’riflangan. Bunda ikki qadriyatlar tizimining o‘zaro aloqadorligi yaqqol ko‘rinib turadi. Mutafakkirning ma’naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi g‘oyalari bugungi kunda ham butunjahon miqyosida katta ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Sharq falsafasida voqelikka aksiologik munosabat inson, jamiyat va borliq o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi ma’naviy-me’yoriy tizim sifatida talqin etiladi. Sharq mutafakkirlari voqelikni faqat obyektiv mavjudlik yoki moddiy hodisalar majmui sifatida emas, balki axloqiy, ma’naviy va estetik qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizim sifatida izohlaydilar. Shu jihatdan Sharq falsafasining aksiologik konsepsiyalari insonning voqelikka munosabatini ezgulik, adolat, komillik, burch, mas’uliyat va ma’naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.История китайской философии. –М.: Пргоресс, 1989. –С.61-62.

2. Радхакрининан С. Индийская философия. Т.1. –М.: Изд. иностр. Лит-ры, 1956. –С.182-186.

3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Т.: Шарқ, 2001.

4. Форобий. Фозил одамдар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашр., 1993; Юсуф Хос-Ҳожиб. Қутадғу билиг. Т.: Маънавият, 2004; Ибн Сино. Илм ва ахлоқ ҳақида рисола. Т.: Шарқ, 2008; Беруний. Феруза. Т.: Шарқ, 1998; Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Маънавият, 2006.

5. Выжлецов Г.П. Духовные ценности и судьба людей. –Москва: АГРАФ, 2015.–С. 23.

6. Тўланов. Ж. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент.: Ўзбекистон. 1998,-Б.137.